


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUL/7-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modelashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILIIY MEXANIZMINI TIZIMLI TAHLILI	10
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
NEW ZEALAND'S EXPERIENCE IN TRANSITIONING TO INFLATION TARGETING	21
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ ПРОЦЕССА ТЕКУЧЕСТИ НА СВОЙСТВА ГРАНУЛИРОВАННЫХ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ УГОЛЬНЫХ ОТХОДОВ В РАМКАХ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ	28
Абдуганиев Азизбек, Кулдашева Азиза	
BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA TO'LOVLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH VA PROGNOZLASH	33
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA (MHXS) O'TISHDA UCHRAYDIGAN ASOSIY MUAMMOLAR: SO'ROVNOMA NATIJALARI ASOSIDA TAHLIL	41
Safarova Gulbahor Nusratovna	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI INNOVATSION EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH MODELI	45
Muradov Bahrom, Masharipov Ma'sud	
TIJORAT BANKLARIDA QARZ OLUVCHILARNING TO'LOVGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	49
Soibov Jamshid Raxmatqulovovich	
O'ZBEKISTONDA CHEGARALARARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	56
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI VA FUNKSIONAL EVOLYUTSIYASI: XALQARO STANDARTLARNING YANGI AVLODI ASOSIDAGI YONDASHUV	62
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLYAVIY INVESTITSİYALAR AUDITINI O'TKAZISH METODIKASINI VA AUDIT RISKLARINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	69
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	



MOLIYAVIY INVESTITSİYALAR AUDITINI O'TKAZISH METODIKASINI VA AUDIT RISKLARINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada moliyaviy investitsiyalar auditini o'tkazish metodikasini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan. Amaldagi auditorlik amaliyotida moliyaviy investitsiyalar audit uchun ixtisoslashtirilgan metodika hamda audit risklarini maqsadli baholash tizimini yanada takomillashtirish zarurligi asoslangan. Tadqiqot natijasida audit risklarini baholashning besh bosqichli modeli, shuningdek, moliyaviy investitsiyalar guruhlar va auditorlik tasdiqlari kesimida analitik audit protseduralarining ixtisoslashtirilgan matritsasi ishlab chiqilgan. Taklif etilgan metodika audit riskini kamaytirish, mehnat va vaqt sarfini qisqartirish hamda audit sifatini oshirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: moliyaviy investitsiyalar, audit, audit riski, xos risk, nazorat riski, aniqlash riski, analitik protseduralar, auditorlik tasdiqlari, audit metodikasi, Xalqaro audit standartlari (XAS/ISA).

Abstract. This article examines the improvement of the methodology for auditing financial investments. It substantiates the need to further develop a specialized methodology for auditing financial investments and a targeted system for assessing audit risks in current auditing practice. As a result of the study, a five-stage audit risk assessment model and a specialized matrix of analytical audit procedures structured by groups of financial investments and audit assertions were developed. The proposed methodology makes it possible to reduce audit risk, minimize labour and time costs, and improve audit quality.

Keywords: financial investments, audit, audit risk, inherent risk, control risk, detection risk, analytical procedures, audit assertions, audit methodology, International Standards on Auditing (ISA).

Аннотация. В статье исследуются вопросы совершенствования методики проведения аудита финансовых инвестиций. Обоснована необходимость дальнейшего развития специализированной методики аудита финансовых инвестиций и системы целевой оценки аудиторских рисков в современной аудиторской практике. В результате исследования разработаны пятиэтапная модель оценки аудиторских рисков, а также специализированная матрица аналитических аудиторских процедур в разрезе групп финансовых инвестиций и аудиторских предположений. Предлагаемая методика позволяет снизить аудиторский риск, сократить затраты труда и времени, а также повысить качество аудита.

Ключевые слова: финансовые инвестиции, аудит, аудиторский риск, неотъемлемый риск, риск средств контроля, риск необнаружения, аналитические процедуры, аудиторские предположения, методика аудита, Международные стандарты аудита (МСА/ISA).

KIRISH

Moliyaviy investitsiyalar xo'jalik yurituvchi subyektlar aktivlarining tobora muhim qismiga aylanib bormoqda. Ularning hisobi va moliyaviy hisobotda aks ettirilishi murakkab baholash usullari (amortizatsiya qiymati, adolatli qiymat) va sezilarli subyektiv mulohazani talab qiladi. Shu bois, moliyaviy investitsiyalar moliyaviy hisobotda xatolik va noto'g'ri aks ettirish xavfi yuqori bo'lgan obyektlar sirasiga kiradi. Bu esa ularning auditini o'tkazishda maxsus yondashuv va ixtisoslashgan metodikani taqozo etadi.

Xalqaro audit standartlari (XAS, ISA) auditni xavfga yo'naltirilgan (risk-based) yondashuv asosida tashkil etishni talab qiladi [1]. Bunda auditor avval moliyaviy hisobotdagi muhim noto'g'ri aks ettirish xavfini baholaydi, so'ngra ushbu xavfga mutanosib ravishda audit protseduralarini rejalashtiradi. Shu bilan birga, milliy audit amaliyotida moliyaviy investitsiyalar auditini ularning o'ziga xos xususiyatlari va baholash usullari bilan bog'liq risklarni hisobga olgan holda yanada takomillashtirish zarurati mavjud.

Bundan tashqari, moliyaviy investitsiyalar auditida analitik protseduralardan foydalanish amaliyotini

yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Analitik protseduralar auditorlik dalillarini samarali yig'ish va audit xavfini kamaytirishning muhim vositasi bo'lsa-da, ularni moliyaviy investitsiyalar guruhlarini va auditorlik tasdiqlari kesimida tizimli qo'llash metodikasi ishlab chiqilmagan. Shu bois, moliyaviy investitsiyalar auditini o'tkazish metodikasini, xususan, audit risklarini baholash modelini va analitik protseduralar tizimini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi — aynan shunday ixtisoslashgan metodikani ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Audit riskini baholash va analitik protseduralardan foydalanish masalalari jahon audit nazariyasi va amaliyotida keng o'rganilgan. Bu masalalar Xalqaro audit va ishonchni ta'minlash standartlari kengashi (IAASB) tomonidan ishlab chiqilgan XAS 315 «Muhim noto'g'ri aks ettirish xavflarini aniqlash va baholash», XAS 330 «Auditning baholangan xavflarga javoblari», XAS 520 «Analitik protseduralar» hamda XAS 540 «Hisob baholarini audit qilish» standartlarida tartibga solingan [1; 2]. Xorijiy olimlar T. J. Louwers, P. Bagley, A. Blay, J. R. Strawser, J. C. Thibodeau, I. Gray, S. Manson va L. Crawford audit riskini baholash hamda audit protseduralarini rejalashtirish masalalarini tadqiq etgan [3; 4].

MDH mamlakatlari va O'zbekiston olimlari (A. D. Sheremet, V. P. Suys, M. M. Tulaxo'jayeva va boshqalar) audit nazariyasi va metodikasi masalalarini tadqiq etgan [5; 6]. Shu bilan birga, moliyaviy investitsiyalar auditini aynan ularning baholash usullari (amortizatsiya qiymati, adolatli qiymat) va auditorlik tasdiqlari kesimida ixtisoslashtirish, audit riskini besh bosqichli model asosida baholash hamda analitik protseduralar matritsasini ishlab chiqish masalasi milliy iqtisodiyot kontekstida yetarlicha o'rganilmagan. Bu esa mazkur masalani mustaqil tadqiq etishni taqozo etadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, moliyaviy investitsiyalarni baholashda adolatli qiymat va ECL zaxirasi kabi hisob baholarining (accounting estimates) qo'llanilishi ularning auditini XAS 540 talablari nuqtayi nazaridan murakkablashtiradi. Hisob baholari subyektiv mulohazaga asoslanganligi sababli, auditor ularning asosliqligini baholashda maxsus ehtiyotkorlik bilan yondashishi lozim. Bu holat moliyaviy investitsiyalar auditida riskka yo'naltirilgan yondashuv va analitik protseduralarning ahamiyatini yanada oshiradi, shuningdek, mazkur obyektlar uchun ixtisoslashgan metodika ishlab chiqish zaruriyatini kuchaytiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tahlil va sintez, tizimli yondashuv, matritsaviy modellashtirish, guruhlash hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanilgan. Audit riskini baholash modelini va analitik protseduralar matritsasini ishlab chiqishda Xalqaro audit standartlari (XAS 315, 330, 520, 540) talablari asos qilib olingan. Metodikaning amaliy tatbiqi «O'zbektelekom» AK va «O'zbekiston pochta» AJ moliyaviy investitsiyalari auditini misolida ko'rib chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy investitsiyalar auditini samarali o'tkazish uchun avvalo audit riskini to'g'ri baholash zarur. Xalqaro audit standartlariga muvofiq, audit riski uchta tarkibiy qismdan iborat bo'lib, u quyidagi modelga asoslanadi:

$$AR = XR \times NR \times ANR$$

bunda: AR — audit riski (moliyaviy hisobotda muhim xatolik mavjud bo'lganda auditorning noto'g'ri ijobiy xulosa berish xavfi); XR — xos (ichki) risk; NR — nazorat (ichki nazorat tizimi) riski; ANR — aniqlash riski (auditor muhim xatolikni aniqlamaslik xavfi). Auditor xos va nazorat risklarini baholab, maqbul audit riski darajasiga erishish uchun aniqlash riskini tegishli darajada belgilaydi.

Tadqiqot natijasida moliyaviy investitsiyalar auditida audit riskini izchil va maqsadli baholash imkonini beruvchi besh bosqichli model ishlab chiqildi (1-jadval).

1-jadval

Moliyaviy investitsiyalar auditini riskini baholashning besh bosqichli modeli¹

Bosqich	Mazmuni	Natija
1-bosqich	Subyekt faoliyati, moliyaviy investitsiyalar muhiti va hisob siyosatini o'rganish	Audit obyekti haqida tushuncha shakllantirish

1 Manba: muallif tomonidan XAS talablari asosida ishlab chiqilgan.



Bosqich	Mazmuni	Natija
2-bosqich	Moliyaviy investitsiyalar guruhlarini (AC, FVOCI, FVTPL) kesimida xos riskni baholash	Xos risk (XR) darajasi
3-bosqich	Moliyaviy investitsiyalar bo'yicha ichki nazorat tizimi samaradorligini baholash	Nazorat riski (NR) darajasi
4-bosqich	Analitik audit protseduralarini rejalashtirish va o'tkazish, aniqlash riskini belgilash	Aniqlash riski (ANR) darajasi
5-bosqich	Audit riskini umumlashtirish va auditorlik xulosasini shakllantirish	Yakuniy audit riski va xulosa

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, taklif etilayotgan model audit riskini baholashni izchil besh bosqichda amalga oshiradi. Birinchi uch bosqichda auditor xos va nazorat risklarini baholaydi, to'rtinchi bosqichda analitik protseduralar orqali aniqlash riskini belgilaydi, beshinchi bosqichda esa audit riskini umumlashtiradi. Ushbu yondashuv moliyaviy investitsiyalar auditini tizimli va izchil tashkil etish imkonini beradi.

1-bosqich — subyekt muhitini o'rganish. Ushbu bosqichda auditor subyektning faoliyati, moliyaviy investitsiyalar portfeli tarkibi, ularni boshqarish biznes modeli hamda hisob siyosatini o'rganadi. Bunda investitsiyalarning qaysi baholash usuliga ko'ra guruhlanishi, ularning hajmi va moliyaviy hisobotdagi ulushi aniqlanadi. Bu audit obyekti haqida yaxlit tushuncha shakllantirish va keyingi bosqichlarni rejalashtirish uchun asos bo'ladi.

2-bosqich — xos riskni baholash. Xos risk moliyaviy investitsiyalar guruhlarini kesimida baholanadi. Adolatli qiymatda baholanuvchi investitsiyalar bo'yicha xos risk yuqori bo'ladi, chunki ularni baholash subyektiv mulohaza va bozor ma'lumotlariga bog'liq. Amortizatsiya qiymati bo'yicha baholanuvchi investitsiyalarda esa asosiy risk hisob-kitoblar (samarali foiz, ECL) to'g'riligi bilan bog'liq.

3-bosqich — nazorat riskini baholash. Auditor moliyaviy investitsiyalar bo'yicha ichki nazorat tizimining samaradorligini baholaydi. Bunda investitsion qarorlarni tasdiqlash tartibi, vakolatlar taqsimoti, investitsiyalarni ro'yxatga olish va inventarizatsiya qilish jarayonlari, shuningdek, baholash va hisobga olish bo'yicha nazorat protseduralari o'rganiladi. Ichki nazorat samarali bo'lsa, nazorat riski past baholanadi.

4-bosqich — analitik protseduralar va aniqlash riski. Bu bosqichda auditor xos va nazorat risklarining bahosiga mutanosib ravishda aniqlash riskini belgilaydi hamda analitik audit protseduralarini rejalashtirib, amalga oshiradi. Xos va nazorat risklarining yuqori baholanishi aniqlash riskini pasaytirishni va shunga mos ravishda kengroq protseduralarni talab qiladi.

5-bosqich — umumlashtirish va xulosa. Yakuniy bosqichda auditor olingan dalillarni umumlashtirib, audit riskini baholaydi va moliyaviy investitsiyalar bo'yicha auditorlik xulosasini shakllantiradi. Agar yig'ilgan dalillar yetarli va ishonchli bo'lsa, auditor maqbul audit riski darajasiga erishganligini tasdiqlaydi.

Xos va nazorat risklarining bahosiga qarab aniqlash riskining maqbul darajasini belgilash uchun audit riskini baholash matritsasidan foydalanish mumkin (2-jadval).

2-jadval

Xos va nazorat risklariga ko'ra aniqlash riskining maqbul darajasi²

Xos risk (XR)	NR — yuqori	NR — o'rta	NR — past
Yuqori	Eng past	Past	O'rta
O'rta	Past	O'rta	Yuqori
Past	O'rta	Yuqori	Eng yuqori

2-jadvaldan ko'rinadiki, xos va nazorat risklari yuqori baholangan holatda aniqlash riski eng past darajada belgilanishi, ya'ni auditor eng keng va chuqur protseduralarni qo'llashi lozim. Aksincha, har ikkala risk past bo'lganda aniqlash riski yuqori belgilanishi, bu esa protseduralar hajmini qisqartirish imkonini beradi. Ushbu matritsa audit resurslarini riskka mutanosib ravishda taqsimlashga xizmat qiladi.

Moliyaviy investitsiyalar guruhlarining har biri turlicha xos riskka ega bo'ladi. 3-jadvalda audit riski tarkibiy qismlarining moliyaviy investitsiyalar guruhlarini kesimida baholanishi keltirilgan.

3-jadval

Audit riski tarkibiy qismlarining moliyaviy investitsiyalar guruhlarida baholanishi³

Guruh	Xos risk (XR)	Asosiy risk manbai	Audit e'tibori
Amortizatsiya qiymati (AC)	O'rta	Samarali foiz va ECL hisob-kitobi	Hisob-kitoblar to'g'riligi
FVOCI	Yuqori	Adolatli qiymatni aniqlash	Baholash usuli va kapitalda aks etishi
FVTPL	Yuqori	Adolatli qiymat tebranishlari	Bozor ma'lumotlari ishonchliligi

3-jadvaldan ko'rinadiki, adolatli qiymatda baholanuvchi guruhlar (FVOCI va FVTPL) yuqori xos riskka ega, chunki ularni baholash bozor ma'lumotlari va subyektiv mulohazaga bog'liq. Shunga ko'ra, auditor ushbu guruhlariga nisbatan kengroq va chuqurroq protseduralarni qo'llashi, amortizatsiyalangan qiymat bo'yicha baholanuvchi guruhda esa asosan hisob-kitoblar to'g'riligiga e'tibor qaratishi lozim.

Analitik audit protseduralarining ixtisoslashgan matritsasi. Moliyaviy investitsiyalar auditini samarali o'tkazish uchun analitik protseduralarni moliyaviy investitsiyalar guruhlarida va auditorlik tasdiqlari (assertions) kesimida tizimli qo'llash zarur. Tadqiqot natijasida analitik audit protseduralarining ixtisoslashgan matritsasi ishlab chiqildi (4-jadval). Matritsa auditorlik tasdiqlarining har biri uchun mos analitik protseduralarni belgilab beradi.

4-jadval

Moliyaviy investitsiyalar auditida analitik protseduralarning ixtisoslashgan matritsasi⁴

Auditorlik tasdig'i	Taklif etilayotgan analitik protsedura
Mavjudlik (existence)	Investitsiyalar reyestri, depozitariy va emitent ma'lumotlarini solishtirish; inventarizatsiya natijalarini tahlil qilish
To'liqlik (completeness)	Moliyaviy investitsiyalar harakatini davrlar kesimida tahlil qilish; daromad va investitsiya qoldiqlari muvofiqligini tekshirish
Baholash (valuation)	Adolatli qiymat va amortizatsiya qiymati hisob-kitobini qayta hisoblash; ECL zaxirasi asosliqligini tahlil qilish
Huquqlar (rights)	Egalik hujjatlari, shartnomalar va garov majburiyatlarini tekshirish
Taqdim etish (presentation)	Moliyaviy hisobotda guruhlar bo'yicha tasniflash va oshkora qilishni XAS/MHXS talablariga solishtirish

4-jadvalda keltirilgan matritsa auditorga har bir auditorlik tasdig'i bo'yicha mos analitik protsedurani tanlash imkonini beradi. Bu audit protseduralarini maqsadli va tizimli tashkil etish, takrorlanishning oldini olish hamda auditorlik dalillarini samarali yig'ishga xizmat qiladi. Matritsani moliyaviy investitsiyalar guruhlarida bilan birgalikda qo'llash audit dasturini yanada ixtisoslashtiradi.

Analitik protseduralarni qo'llashda auditor nafaqat joriy davr ma'lumotlarini, balki ularni o'tgan davrlar, reja ko'rsatkichlari va tarmoqning o'rtacha ko'rsatkichlari bilan taqqoslashi lozim. Masalan, moliyaviy investitsiyalardan olingan daromadning investitsiyalar o'rtacha qoldig'iga nisbati (daromadlilik koeffitsiyenti) kutilgan darajadan sezilarli farq qilsa, bu noto'g'ri aks ettirish belgisi bo'lishi mumkin va qo'shimcha tekshirishni talab qiladi. Shu tariqa, analitik protseduralar matritsasi auditorga noodatiy tebranishlarni erta aniqlash va audit e'tiborini yuqori riskli sohalarga yo'naltirish imkonini beradi.

Nazorat riskini baholash xususiyatlari. Moliyaviy investitsiyalar bo'yicha nazorat riskini baholashda auditor ichki nazorat tizimining bir qator muhim elementlarini tekshiradi. Jumladan: investitsion qarorlarni qabul qilish va tasdiqlash vakolatlarining taqsimlanishi; moliyaviy investitsiyalarni ro'yxatga olish va ularning saqlanishini ta'minlash tartibi; adolatli qiymatni aniqlash va ECL zaxirasini hisoblash bo'yicha nazorat protseduralari; moliyaviy hisobotni tuzishda ishlatiladigan ma'lumotlarning ishonchliligini ta'minlovchi nazorat mexanizmlari. Ushbu elementlar samarali ishlaganda nazorat riski past, aks holda yuqori baholanadi.

Nazorat riskini baholash natijalari audit dasturini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Agar ichki nazorat tizimi ishonchli deb topilsa, auditor nazorat vositalarining samaradorligini sinovdan o'tkazish orqali mohiyat bo'yicha protseduralar hajmini kamaytirishi mumkin. Ichki nazorat tizimining samaradorligi yetarli darajada bo'lmagan holatlarda auditor asosan mohiyat bo'yicha protseduralarga tayanadi. Shunday qilib, besh bosqichli model doirasida nazorat riskini to'g'ri baholash audit resurslarini oqilona taqsimlashga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Taklif etilayotgan metodikaning amaliy tatbiqi «O'zbektelekom» AK va «O'zbekiston pochta» AJ moliyaviy investitsiyalari auditida misolida ko'rib chiqildi. Besh bosqichli model va analitik protseduralar matritsasini qo'llash

3 Manba: muallif ishlanmasi.

4 Manba: muallif ishlanmasi.



auditorga moliyaviy investitsiyalarning har bir guruhi bo'yicha riskni maqsadli baholash va protseduralarni ixtisoslashtirish imkonini berdi. Bu esa auditga sarflanadigan mehnat va vaqtni qisqartirish, auditorlik xavfini kamaytirish hamda audit sifatini oshirishga xizmat qildi.

Metodikani raqamlashtirish imkoniyatlari. Taklif etilayotgan besh bosqichli model va analitik protseduralar matritsasi auditni raqamlashtirish uchun ham asos yaratadi. Moliyaviy investitsiyalar bo'yicha analitik hisob ma'lumotlari elektron shaklda yuritilganda, auditor analitik protseduralarni avtomatlashtirilgan holda va butun ma'lumotlar to'plami bo'yicha (tanlanma usuldan farqli ravishda) o'tkazishi mumkin. Bu uzluksiz audit (continuous auditing) yondashuvini joriy etish, noodatiy operatsiyalarni avtomatik aniqlash hamda audit sifati va tezkorligini oshirish imkonini beradi. Shu tariqa, metodika moliyaviy investitsiyalar auditini zamonaviy raqamli vositalar bilan uyg'unlashtirish zaminini yaratadi.

Amaliy misol. Moliyaviy investitsiyalar auditida aniqlash riskini belgilash tartibini quyidagi misol orqali ko'rsatamiz. Faraz qilaylik, auditor maqbul audit riskini (AR) 5 foiz deb belgiladi. FVTPL guruhiga kiruvchi investitsiyalar bo'yicha xos risk (XR) yuqori — 80 foiz, ichki nazorat tizimining samaradorligi nisbatan past baholangani sababli nazorat riski (NR) 60 foiz deb baholandi. $AR = XR \times NR \times ANR$ tenglamasidan foydalanib, aniqlash riski (ANR) quyidagicha aniqlanadi: $ANR = AR / (XR \times NR) = 0,05 / (0,80 \times 0,60) = 0,104$, ya'ni taxminan 10 foiz. Demak, auditor aniqlash riskini juda past (10 foiz) darajada ushlab turishi, buning uchun esa keng hajmdagi va chuqur audit protseduralarini qo'llashi lozim.

Xuddi shu subyektning amortizatsiya qiymati bo'yicha baholanuvchi (AC) investitsiyalari uchun xos risk o'rta (50 foiz), ichki nazorat esa samarali bo'lgani sababli nazorat riski past (30 foiz) deb baholansa, aniqlash riski $ANR = 0,05 / (0,50 \times 0,30) = 0,33$, ya'ni taxminan 33 foiz darajasida belgilanadi. Bu auditorga AC guruhi bo'yicha nisbatan kam hajmdagi protseduralar bilan kifoyalanish imkonini beradi. Shunday qilib, taklif etilayotgan model audit resurslarini guruhlar kesimida riskka mutanosib ravishda taqsimlashni ta'minlaydi.

Metodikaning ustunliklari. Taklif etilayotgan metodikaning asosiy ustunliklari quyidagilardan iborat: birinchidan, audit riski moliyaviy investitsiyalar guruhlar kesimida maqsadli baholanadi; ikkinchidan, analitik protseduralar matritsasi auditorlik tasdiqlari bo'yicha tizimli qo'llanadi; uchinchidan, audit resurslari riskka mutanosib taqsimlanib, mehnat va vaqt sarfi qisqaradi; to'rtinchidan, metodika moliyaviy investitsiyalar auditini XAS talablariga muvofiqlashtiradi. Bu omillar birgalikda audit sifatini va auditorlik xulosasining ishonchligini oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi:

Birinchidan, amaldagi audit amaliyotida moliyaviy investitsiyalar auditini uchun moliyaviy investitsiyalar auditini uchun ixtisoslashgan metodika va audit risklarini maqsadli baholash tizimini yanada takomillashtirish zarurligi asoslandi. Moliyaviy investitsiyalarga xos risklarning nisbatan yuqoriligi ularning auditida ixtisoslashgan yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, moliyaviy investitsiyalar auditini riskini izchil baholash imkonini beruvchi besh bosqichli model ishlab chiqildi. Model subyekt muhitini o'rganish, xos va nazorat risklarini guruhlar kesimida baholash, analitik protseduralar orqali aniqlash riskini belgilash hamda audit riskini umumlashtirishni o'z ichiga oladi.

Uchinchidan, analitik audit protseduralarining ixtisoslashgan matritsasi ishlab chiqildi. Matritsa auditorlik tasdiqlari va moliyaviy investitsiyalar guruhlar kesimida mos protseduralarni belgilab, audit dasturini ixtisoslashtiradi.

To'rtinchidan, taklif etilayotgan metodikani amaliyotga joriy etish auditorlik xavfini kamaytirish, mehnat va vaqt sarfini qisqartirish hamda audit sifatini oshirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy investitsiyalar auditini o'tkazish metodikasini takomillashtirish bo'yicha taklif etilgan besh bosqichli model va analitik protseduralar matritsasi auditorlik tashkilotlari uchun amaliy qo'llanma bo'lib, moliyaviy investitsiyalar auditini sifatini oshirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. International Auditing and Assurance Standards Board. *2022 Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Other Assurance, and Related Services Pronouncements*. — New York: International Federation of Accountants, 2023. — ISBN 978-1-60815-546-0.
2. International Auditing and Assurance Standards Board. International Standard on Auditing 520 «Analytical Procedures» // *2022 Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Other Assurance, and Related Services Pronouncements*. — New York: IFAC, 2023.
3. Louwers T. J., Bagley P., Blay A., Strawser J. R., Thibodeau J. C. *Auditing & Assurance Services*. 8th ed. — New York: McGraw-Hill Education, 2021. — ISBN 978-1-260-36920-5.
4. Gray I., Manson S., Crawford L. *The Audit Process: Principles, Practice and Cases*. 7th ed. — Andover: Cengage Learning, 2019. — 923 p. — ISBN 978-1-4737-6018-9.



5. Шеремет А. Д., Суйц В. П. *Аудит: учебник*. 7-е изд., перераб. и доп. — Москва: ИНФРА-М, 2020. — 375 с. — ISBN 978-5-16-012528-2.
6. Tulaxodjayeva M. M., Ilhamov Sh. I., Axmadjonov K. B., Fayziyev Sh., Xodjayeva M. X., Tulayev M. S. *Audit: darslik*. 2-qism. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2018. — 405 b.
7. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi O'RQ-677-son «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. — 2021-yil 26-fevral. — 03/21/677/0155-son. <https://lex.uz/docs/-5307886>
8. International Accounting Standards Board. IFRS 9 «Financial Instruments» // *IFRS Accounting Standards — Issued at 1 January 2023*. — London: IFRS Foundation, 2023. — ISBN 978-1-914113-77-2.
9. KPMG. *Insights into IFRS: KPMG's Practical Guide to IFRS*. 19th ed. — London: KPMG IFRG Limited, 2022/2023.
10. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi O'RQ-404-son «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. — 2016. — 15-son. — 142-modda. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: Lex.uz. <https://lex.uz/ru/docs/-2931253>



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100